

«RO'YXATGA OLINGAN»
O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan

2026 yil « 4 » *fevral*

40 -son

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o'rinbosari
N.N. Saydullayev



**«Octobank»
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
USTAVI
(yangi tahriri)**

Bank Aksiyadorlarining
2025 yil 15-dekabrda
umumiy yig'ilishi tomonidan
(49/2025-sonli bayonnoma)

«TASDIQLANGAN»

A.V. Oshepkov



TOSHKENT – 2025 yil

1. “Octobank” aksiyadorlik jamiyati (keyinchalik “Bank” deb yuritiladi) aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko‘rsatuvchi kredit tashkiloti hisoblanadi

2. Bank ta‘sischilar yig‘ilishining (2000 yil 26 aprel 001/2000-sonli bayonnoma) qaroriga binoan ochiq aksiyadorlik bank shaklida tashkil qilingan. Bank aksiyadorlarining 2023 - yil 30 - avgustdagi umumiy yig‘ilishi (44/2023-sonli bayonnoma) qarori bilan bank nomi “Ravnaq-bank” aksiyadorlik jamiyatidan “Octobank” aksiyadorlik jamiyatiga o‘zgartirilgan.

3. Bank o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” (yangi tahrirda), “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” (yangi taxrirda), “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek mazkur Ustavga amal qiladi.

4. Bank O‘zbekiston Respublikasining bank tizimi tarkibiga kiradi.

5. Bankni tashkil qilish va faoliyatidan maqsad - O‘zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida amaldagi qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan bank va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish, shuningdek foyda olish maqsadida yuqorida ko‘rsatilgan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatish hisoblanadi.

6. Bankning to‘liq nomi:

o‘zbek tilida kirill yozuvida: “Октобанк” акциядорлик жамияти;

o‘zbek tilida lotin yozuvida: “Octobank” aksiyadorlik jamiyati;

rus tilida: Акционерное общество “Октобанк”;

ingliz tilida: Joint stock company “Octobank”.

Bankning qisqartirilgan nomi:

o‘zbek tilida kirill yozuvida: “Октобанк” АЖ;

o‘zbek tilida lotin yozuvida: “Octobank” AJ;

rus tilida: АО “Октобанк”;

ingliz tilida: JSC “Octobank”.

7. Bank yuridik shaxs hisoblanadi va o‘zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo‘ladi, o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

8. Bank belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs huquqini bermagan holda o‘z filiallarini, vakolatxonalarini va boshqa alohida bo‘linmalarni tashkil qilishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va Bank ustavida belgilangan qoidalar doirasida ularga huquqlar berishi mumkin.

Filiallar va vakolatxonalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tashkil qilinadi. Filiallar davlat tilidagi o‘z nomi yozilgan dumaloq muhrga, shtampga va o‘z nomidagi blankalarga ega.

Filiallar Bank nomidan faoliyat yuritadilar. Bank o'z filiallari faoliyati uchun javobgar bo'ladi. Filial Boshqaruvchilari bank tomonidan berilgan ishonchnoma asosida faoliyat yuritadilar. Bank nomidan ishonchnoma Bank Boshqaruvi Raisi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan beriladi.

Filiallar va vakolatxonalar o'z faoliyatlarini Bank Kuzatuv kengashi tasdiqlagan Nizom asosida amalga oshiradilar.

Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyinchalik "Markaziy bank" deb yuritiladi) ruxsati bilan mamlakat tashqarisida sho'ba banklar, filiallar va vakolatxonalar ochishi mumkin. Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallarni tuzish, vakolatxonalarini va sho'ba banklarni ochish filiallar, vakolatxonalar va sho'ba banklar turgan joydagi davlat qonunchiligiga asosan amalga oshiriladi.

9. Bank mablag'larining saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun, shu jumladan to'lovlar bir bankdan boshqa bankka o'z vaqtida o'tishi hamda mablag'larning korxonalar va tashkilotlar hisob-kitob varaqlariga kiritilishi uchun o'z mijozlari va omonatchilari oldida javobgardir.

Aksiyadorlar Bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Aksiyalar haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Bank majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Bank o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Davlat va uning organlari Bank o'z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydilar, xuddi shuningdek Bank ham davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

10. Bank cheklanmagan muddatga ta'xis etilgan. Ushbu Ustavda Bankning kundalik xo'jalik faoliyati deganda O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuning (yangi tahrirda) 5-moddasida ko'rsatib o'tilgan bank operatsiyalari tushuniladi.

Shuningdek, Bankning kundalik xo'jalik faoliyati deganda, bank tomonidan berilgan kreditlar (bo'lib-bo'lib sotish, lizing) bo'yicha qarzdorlik hisobiga qabul qilingan garov va ipoteka mulklarini kelgusida realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan bitimlarni (oldi-sotdi, bo'lib-bo'lib to'lashga sotish, kredit, lizing kabilari) va qarzni boshqa shaxsga o'tkazish bitimlarni tuzish tushuniladi.

11. Bank o'zining nomi O'zbekiston Respublikasining davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega. Muhrda bir vaqtning o'zida bankning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

Bank o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

Bankning yuridik va pochta manzillari: 100021, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Furqat ko'chasi, 2 uy.

Bankning elektron pochta manzili: info@octobank.uz

Bankning rasmiy veb-sayti: www.octobank.uz

12. Bank xizmatlari ko'rsatishning umumiy shartlari, vositachilik haqi, tariflar va bank xizmatlari ko'rsatganlik uchun foiz stavkalari to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Mazkur axborot tijorat yoki bank sirining predmeti bo'lishi mumkin emas.

Bank xizmatlari ko'rsatishning umumiy shartlaridagi o'zgarishlar ular kuchga kirishidan kamida o'n kun oldin rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak, shuningdek foiz stavkalarining va valyutalarni ayirboshlash kursining o'zgarishi to'g'risidagi axborot ular o'zgargan kuni e'lon qilinadi.

Bankning ichki qoidalari, shuningdek ularga kiritiladigan keyingi o'zgartish hamda qo'shimchalar banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilishi hamda Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

13. Manfaatlar qarama-qarshiligi bilan bog'liq vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish va nizoli vaziyatlarni bartaraf etish uchun Bank o'z ichiga quyidagilarni oluvchi manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqadi:

Bank mansabdor shaxslarining Bank manfaatini ko'zlab faoliyat yuritish majburiyati;

Bank mansabdor shaxslari tomonidan harakat va bitim amalga oshirilganda yoki ular tomonidan axborot oshkor qilinganda manfaatlar qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash;

Bank mansabdor shaxslarining kuzatuv kengashini manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishi to'g'risida xabardor qilish majburiyati;

Bank kuzatuv kengashining ruxsatisiz Bank mansabdor shaxslarining boshqa yuridik shaxslarning boshqaruv va nazorat organlarida ishtirok etishini taqiqlash;

Bank mansabdor shaxslari tomonidan harakat va bitim amalga oshirilganda yoki ular tomonidan axborot oshkor qilinganda manfaatlar qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olish.

II. BANK OPERATSIYALARI

14. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy (bank) operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatliligi sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasiga asosan talab qilish huquqini olish yoki boshqa shaxsga berish;

qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;

bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha xizmatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan elektron axborot almashish orqali ko'rsatish.

Banklar banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

15. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas.

Ushbu bandning birinchi qismida ko'rsatilgan cheklov quyidagi hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta'minotni sotish yoki ijaraga berishga;

o'z aktivlarini sotishga;

chek daftarchalarini chiqarish, realizatsiya qilish va tarqatishga;

sug'urta tashkilotlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug'urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga;

Bank o'zi muassis bo'lgan yuridik shaxslarga o'z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berishga.

Bankka yuridik shaxslarni tashkil etish va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitalaridagi) ulushlarini yoki aksiyalarini olish taqiqlanadi, bundan quyidagilar mustasno:

kredit, sug'urta, faktoring va lizing operatsiyalarini professional asosda amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

moliya bozori infratuzilmasining bir qismi bo'lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

Bankning kafolati ostida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish maqsadida mazkur bankning xorijda tashkil etiladigan sho'ba tashkilotlari;

faqat inkassatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar;

bank operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar, shu jumladan bank kartalari bilan operatsiyalarga doir hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasida o'zaro bog'liqligini ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

fond va valyuta birjalari;

kredit byurolari;

qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari.

Ushbu bandning talablari Bank tomonidan bir yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushlarini yoki aksiyalarini olish bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining o'n besh foizidan oshmasligi kerak. Ushbu cheklov Bank tomonidan mazkur yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilishga, shu jumladan mazkur yuridik shaxslarning tashkil etilishi hollariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olish yig'indisi bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

Agar Bank tomonidan yuridik shaxslar ustav kapitalidagi ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilish ushbu bandning beshinchi va oltinchi qismlarida ko'rsatilgan miqdordan ortiq bo'lsa, ushbu ortgan qismni bank bir yil ichida sotishi shart.

16. Bank o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi.

Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi shart.

17. Bank aholi, korxonalar, tashkilotlar, kredit va moliya institutlari shu jumladan norezidentlarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi va ularni talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlarida, omonat, muddatli depozit hisobvaraqlarida, shuningdek boshqa turdagi depozit hisobvaraqlari va majburiyat hisobvaraqlarida saqlaydi.

18. Bank korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va muassasalarga kreditning muddatlilik, qaytarishlik va foizlilik prinsiplari asosida so'mda yoki chet el valyutasida kreditlashni amalga oshiradi. Mazkur prinsiplarda Bank fuqarolarga so'mda kreditlashni va mikroqarz berishni amalga oshiradi.

Bank garov, kafolatlar, kafillik, majburiyatlar asosida va majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usullari asosida kreditlar beradi.

Bank bu kafolatlar, kafilliklar, majburiyatlarning yetarliligini o'z kredit siyosati hamda Markaziy bank qoida va tavsiyalarini hisobga olgan holda belgilaydi.

19. Markaziy bank tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirishga haqlidir.

20. Bank O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

III. BANKNING USTAV KAPITALI

21. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Bank tomonidan chiqariladigan aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

Bankning ustav kapitali bank mol-mulkingning Bank kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

22. Bank hujjatsiz shaklda oddiy aksiyalarni chiqaradi va joylashtiradi.

Bankning aksiyalari egasi yozilgan, emission qimmatli qog'ozlardir. Bankning barcha aksiyalarining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'mni tashkil etadi.

Aksiya bo'linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi.

Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

23. Bankning ustav kapitali 500 000 000 000 (besh yuz milliard) so'mni tashkil etadi va quyidagi aksiyalarga taqsimlanadi:

oddiy egasi yozilgan aksiyalar – nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 500 000 000 (besh yuz million) dona miqdorda.

24. Bank tomonidan ustav kapitalini ko'paytirish maqsadida chiqariladigan e'lon qilingan qo'shimcha aksiyalarning summasi 1 000 000 000 000 (bir trillion) so'mni tashkil etadi, shu jumladan:

oddiy egasi yozilgan aksiyalar – nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 1 000 000 000 (bir milliard) dona miqdorda.

25. Bank aksiyalarini joylashtirishda ularning haqini to'lash faqat pul mablag'lari bilangina amalga oshiriladi.

26. Bankning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

27. Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va Bank ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Qo'shimcha aksiyalar Bank tomonidan Bank ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Bank ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy (odatdagi) aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddati va shartlari belgilangan bo'lishi lozim.

Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida qayd etiladi. Bunda bank ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartiriladi.

28. Bankning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Bankning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bankning ustav kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, bankning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

29. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini Bankning o'zi keyinchalik muomaladan chiqarish (bekor qilish) sharti bilan sotib olishi yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Ustav kapitalini kamaytirish hamda Bank ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

Bank o'z aksiyalarini sotib olish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Bank tomonidan sotib olinadigan o'z aksiyalarining summasi bank ustav kapitalining o'n foizidan oshishi mumkin emas.

30. Bank aksiyalarni ochiq va yopiq obuna vositasida chiqarish hamda joylashtirishga haqlidir.

Joylashtirilayotgan aksiyalarning soni aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan miqdordan ko'p bo'lmasligi lozim.

Bank tomonidan Bankning qo'shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

Bank Ustavida yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorida bank aksiyalarini joylashtirish uslubi to'g'risida ko'rsatma bo'lmasa, joylashtirish faqatgina ochiq obuna vositasida amalga oshirilishi mumkin.

31. Bank fond birjasining rasmiy veb-saytida jamiyat ustavining matnini, shu jumladan, unga doir o'zgartirish va qo'shimchalarni, shuningdek oshkor etilishi majburiy bo'lgan boshqa axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qiladi.

Bank qonunchilikda belgilangan tartibda oshkor etilishi majburiy bo'lgan barcha axborotni Korporativ axborotning yagona portalida e'lon qilishi shart. Fond birjasining rasmiy veb-saytida va Korporativ axborotning yagona portalida axborotning oshkor qilinganligi Bankni qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat organlarining yozma so'roviga ko'ra axborot taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi.

32. Jismoniy va yuridik shaxslar yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida Ustav kapitalidagi:

besh va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan yigirma foizni;

yigirma va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan ellik foizni;

ellik va undan ko'proq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin

Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

IV. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

33. Bank operatsiyalarini yuritish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda bank mustaqildir.

34. Bank quyidagi huquqlarga ega:

omonatlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilash;

shartnoma asosida depozit va kreditlar shaklida boshqa banklarning mablag'larini jalb qilish hamda mablag'larni boshqa banklarda joylashtirish;

tashkil etiladigan hisob-kitob markazi va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish;

bank operatsiyalari bo'yicha vositachilik to'lovlari miqdorini mustaqil belgilash;

barcha soliq va majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin tasarrufida qoladigan sof foyda hisobidan zahiralari va fondlarni tashkil qilish;

litsenziyada, Bank ustavida va bank qonunchiligida nazarda tutilgan, o'z moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa xatti-harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish.

35. Bank quyidagilarga majbur:

mablag'larni Markaziy bankda zaxiraga qo'yish va belgilangan prudensial normativlarga rioya qilish bo'yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarni bajarish;

kredit va lizing operatsiyalari bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan tartib va miqdorlarda zaxiralari tashkil etish;

Markaziy bank topshirig'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining kassa ijrosi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;

garov (shu jumladan mol-mulk shaklidagi), beriladigan kafolatlar, kafilliklar va majburiyatlarning yetarliligini hisobga olgan holda beriladigan kreditlar ta'minlanishining lokal tartibini belgilash;

o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor etish;

Bankda ichki audit xizmati mavjud bo'lishini ta'minlash;

o'z mijoz va vakillarining operatsiyalar, hisobvaraqlari hamda omonatlari bo'yicha maxfiylikni ta'minlash;

Bank iste'molchining talabiga binoan unga bank xizmatlarini ko'rsatish shartlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etish.

36. Bank o'z mijoz va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda omonatlari bo'yicha sirini kafolatlaydi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mijozning (vakilning) o'ziga, mijoz tomonidan vakolat berilgan vakilga va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa shaxslarga beriladi.

V. BANK AKSIYADORLARI

37. Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi bo'lib, ularning egasiga dividendlar olish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida va Bankni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

38. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

39. Aksiyadorlarning huquqlari.

Aksiyadorlar:

Bankning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;

depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Bank tugatilgan taqdirda o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va ularning narxlarini to'g'risida ma'lumotlar olish;

Bankni boshqarishda ishtirok etish, shu jumladan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida o'zi yoki vakillari orqali ishtirok etish va ovoz berish;

Bank ustaviga muvofiq bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va to'g'ri axborot olish, bank siri hisoblangan ma'lumotlar bundan mustasno;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bankdan unga tegishli bo'lgan aksiyalarning hammasi yoki bir qismini sotib olishini talab qilish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish yuzasidan vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

o'ziga yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlariga birlashish;

Bank aksiyalarini sotib olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

Aksiyador (aksiyadorlar) yirik bitimni yoki affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo arizasini sudda ko'rib chiqish chog'ida Bankdan va guvohlardan sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan ishga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni olishga haqli, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasno;

Aksiyador qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

40. Aksiyador quyidagilarga majbur:

Amaldagi qonunchilik doirasida Bank ustavi talablariga rioya qilish va Bank boshqaruvi organi o'z vakolat doirasida qabul qilingan, aksiyadorlarga taalluqli bo'lgan qarorlarini bajarish;

uning aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi investitsiya vositachini o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

Bank faoliyati to'g'risida sir tutiladigan, shu jumladan Bankning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotni oshkor etmaslik;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish;

qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta'minlash uchun bank tomonidan so'rab olinadigan axborotni taqdim etish.

41. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar:

Bankni qayta tashkil etish to'g'risida;

joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish haqida;

Bank tomonidan mol-mulkni olish yoki boshqa shaxsga berish bilan bog'liq yirik bitim tuzish to'g'risida;

Bankning aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavni tasdiqlash to'g'risida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qarorlar qabul qilishda, agar ular qarshi ovoz bergan bo'lsa yoxud ovoz berishda uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqlidir.

Bank aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur Bank aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizidan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalari aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini o'ttiz kun ichida e'lon qilishi shart. Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni sotishi to'g'risidagi yozma roziligi e'lon qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida olingan taqdirda, Bankning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olishi shart.

Ushbu Ustavning 32 bandida ko'rsatib o'tilgan holatlarda ulushlar, Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olgan shaxslar tomonidan o'zgartirilgan taqdirda, xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

42. Qonunchilikda ko'rsatilgan hollarda Markaziy bank quyidagi choralar hamda sanksiyalarni alohida-alohida yoki jamlangan tarzda qo'llaydi:

ovoz berish, aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish va o'tkazishni talab qilish, kun tartibiga masalalarni kiritish, Bank kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolariga nomzodlar ko'rsatish hamda Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish huquqini to'xtatib qo'yadi;

ovoz berish huquqi to'xtatib qo'yilgan shaxslar tomonidan Bank aksiyalari sotilishi to'g'risida qaror qabul qiladi;

Bank aksiyalarini olishga doir berilgan dastlabki ruxsatnomani chaqirib oladi.

VI. BANKNING SOF FOYDASINI TAQSIMLASH. DIVIDENDLAR

43. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin, Bank tasarrufida qoladigan foyda, ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra qayta investitsiyalashni amalga oshirish, amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq zaxira fondlarini tashkil qilish va aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lashga yo'naltiriladi.

44. Dividend Bank sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

Bank tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Dividendlar Bankning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

Dividend aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Bankning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

45. Bank:

Bank ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

agar dividendlar to'lanadigan paytda Bankda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Bankda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

agar Bank sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

Ushbu bandda ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Bank hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

46. Bank aksiyadorlarga dividendlar to'lash, shuningdek Bankning kuzatuv kengashi, Boshqaruvi a'zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda amalga oshirishga haqli emas:

prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda yoki ular mazkur taqsimlash oqibatida buzilganda;

to'lovga qobiliyatsiz bo'lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida nochorlikning (bankrotlikning) alomatlari yuzaga kelganda;

Markaziy bankning ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmaganda;

Markaziy bankning foydani taqsimlamaslik to'g'risida Bankka nisbatan talabi mavjud bo'lganda.

Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak: ushbu band birinchi qismining birinchi xatboshisida ko'rsatilgan to'lovlarning umumiy summasi bankning o'z kapitalining o'n foizidan ortganda;

joriy yoki o'tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo'lganda.

47. Bank moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Bankning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

Aksiyalar har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Bank kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

48. Bank aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlarni to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.

49. Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reyestrída qayd etilgan aksiyadorlar dividend olish huquqiga ega.

Bank aksiyadorlarining reyestri Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish rasmiy e'lon qilingan sanadan 3 ish kun oldin shakllantiriladi.

50. Bank dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

Bank to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va Bankning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

Dividendlarga soliq solish soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi va bunda soliq solish bo'yicha imtiyozlar belgilanishi mumkin.

51. Bank O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq zaxira fondini tuzadi va undan foydalanadi. Bankning zaxira fondi ustav kapitalining 15 foizi miqdorida tashkil etiladi. Bankning hisobot davrida har yilgi ajratmalarning miqdori sof foydaning besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

52. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Bankning zaxira fondi Bankning zararlari o'rini qoplash, Bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va Bankning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

53. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha boshqa fondlar tuzilishi mumkin. Bank fondlari mablag'laridan foydalanish, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan tegishli fondlar to'g'risidagi nizomlarga muvofiq Bank kuzatuv kengashi qarori bo'yicha amalga oshiriladi.

VII. BANKNI BOSHQARISH

54. Quyidagilar bankning Boshqaruv organlari hisoblanadi:

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;

Bank kuzatuv kengashi;

Bank Boshqaruvi.

Bank kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi Bank ustavi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida berilgan vakolatlar doirasida bank faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Bank korporativ boshqaruvga oid siyosatni ishlab chiqishi va tasdiqlashi shart.

Bank kuzatuv kengashining va Boshqaruvining a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Bank kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga doimo muvofiq bo'lishini ta'minlashi shart.

Markaziy bank Bank kuzatuv kengashining va Boshqaruvning a'ziligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi. Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni obyektiv sabablarga ko'ra oldindan kelishib olishning imkoni bo'lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun so'rovnomaga yuborishi kerak.

Bank boshqaruvi a'zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari ish beruvchining roziligi bilan boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlashi mumkin, bundan ularning boshqa banklar va tashkilotlarda ishga joylashuvi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

Bank kuzatuv kengashining va Boshqaruvining a'zolarini, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarni baholash shartlari, baholash uchun zarur hujjatlar, malaka talablariga muvofiqlik mezonlari, shuningdek ularni kelishib olish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi

55. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bankning yuqori boshqaruv organidir.

56. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Bank ustavini tasdiqlash;

2) Bankni qayta tashkil etish;

3) Bankni tugatish, tugatuvchini tayinlash, oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) Bank kuzatuv kengashi va Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

5) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

6) Bank ustav kapitalini kamaytirish;

7) o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;

8) Bank tarkibiy tuzilmasini tasdiqlash;

9) Bank kuzatuv kengashi tomonidan tayinlangan Bank Boshqaruvi Raisini tasdiqlash;

10) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

11) Bank Boshqaruvi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

12) Bankning foyda va zararlarini taqsimlash;

13) Bankning yillik hisobotlari, buxgalteriya balanslari, foyda va zararlar hisobvarag'ini tasdiqlash;

14) Bank kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Bank kuzatuv kengashining hisobotlarini va xulosalarini eshitish;

15) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda aksiyadorlarning aksiyalarni va ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni imtiyozli sotib olish huquqini qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilish;

16) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;

17) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

18) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va hollarda affillangan shaxs bilan tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilish.

Affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan aksiyadorlarning malakali ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bunda Bankning affillangan shaxsi bilan aktivlarining qiymati jamiyat sof aktivlari qiymatining o'n yoki undan ko'p foizini tashkil etadigan bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi;

19) mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etadigan bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;

Bunda yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

20) fondlarni tuzilish xaqida qarorlarni qabul qilish;

21) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bank ustavida ko'rsatilgan boshqa masalalarni hal etish;

22) Bank faoliyatining asosiy yunalishlari va maqsadidan kelib chiqqan xolda Bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

23) majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bank kuzatuv kengashi hal etishi uchun berilishi mumkin emas, quyidagilar bundan mustasno:

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Bank ustaviga Bankning ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bank Boshqaruv a'zolarini lavozimiga tayinlash va vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bank Boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;

Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

57. Ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bank ustavining 56-bandi 1), 2), 3), 5), 14) 18), 19) kichik bandlarida va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Bank ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

58. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

59. Bank Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini har yili o'tkazishi shart. Aksiyadorlar umumiy hisobot yig'ilishi har yili moliya yili tugagandan keyin ko'pi bilan 6 (olti) oy ichida o'tkaziladi.

60. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga rasmiy e'lon qilingan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasidan 3 ish kun oldin shakllantiriladigan Bank aksiyadorlarining reyestrída qayd etilgan aksiyadorlar ega.

61. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

62. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotlar (materiallar)ga Bankning yillik hisoboti, Bankning yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha auditorlik tashkilotining xulosasi, Bank Boshqaruvi Raisi bilan tuzilgan shartnoma muddatini uzaytirish, qayta tuzish yoki shartnomani bekor qilish mumkinligi to'g'risida Bank kuzatuv kengashi xulosasi, Bank kuzatuv kengashi a'zozligiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi yoki yangi tahrirdagi Bank ustavi loyihasi kiradi.

63. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyadori) bankning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay, Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Bank kuzatuv kengashi bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

Aksiyadorlar (aksiyador) Bank kuzatuv kengashiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 3 ish kundan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritishga haqli.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

Bank kuzatuv kengashi nomzodlar ko'rsatish, shu jumladan o'zining nomzodini ko'rsatish to'g'risida taklif kiritilganda nomzodning ismi, basharti nomzod Bank aksiyadori bo'lsa, unga tegishli aksiyalarning soni va turi, shuningdek nomzodni ko'rsatgan aksiyadorlarning ismi, ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

Bank kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan muddat tugaganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay ularni Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Aksiyador (aksiyadorlar) kiritgan masala Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Bank kuzatuv kengashi saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

aksiyador (aksiyadorlar) ushbu bandning birinchi qismida belgilangan muddatga rioya etmagan bo'lsa;

aksiyador (aksiyadorlar) ushbu bandning birinchi qismida nazarda tutilgan miqdordagi bank ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

ushbu bandning uchinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

takliflar ushbu Ustavning yoki boshqa qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmasa.

Bank kuzatuv kengashining masalani Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank kuzatuv kengashi saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori ana shu masalani kiritgan yoki taklif taqdim

etgan aksiyadorga (aksiyadorlarga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uzog'i bilan uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

Bank kuzatuv kengashining masalani Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank kuzatuv kengashi saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

64. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Bank kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

Bank kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish, aksiyadorlar Markaziy bank tomonidan belgilangan masalalarni, shu jumladan bank kapitalini bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlay oladigan miqdorgacha ko'paytirish masalasini ko'rib chiqish to'g'risidagi Markaziy bank tomonidan qo'yilgan talab bajarilmaganda, Markaziy bank aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishga va kun tartibini belgilashga haqli.

65. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi shaxsan aksiyador tomonidan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyador Aksiyadorlar umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

66. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida yozma ishonchnoma asosida ish ko'radi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, turar joyi yoki joylashgan manzili, pasport ma'lumotlari) aks ettirilgan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan beriladigan ovoz berishga doir ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

Agar bankning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

67. Agar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda, bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

68. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni Bank kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Bank kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

69. Bank kuzatuv kengashi a'zosini saylash to'g'risidagi masala yuzasidan ovoz berish o'tkazilgan taqdirda, ovoz berish byulletenida nomzod to'g'risidagi ma'lumot aks ettirilgan bo'lib, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi lozim.

70. Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma tuzadi. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'tkaziladigan umumiy yig'ilishining kvorumi mavjudligi haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin aksiyadorlarning qog'ozdagi yoki elektron jismdagi ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi va jamiyat arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

71. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida Raislik qiluvchi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibi tomonidan imzolanadi.

Bank kuzatuv kengashi

72. Bank kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va ushbu Ustav bilan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

73. Bank kuzatuv kengashi vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) bankning boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- 2) strategik maqsadlarni, Bankning siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;
- 3) aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;
- 4) bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash.
- 5) yillik va navbatdan tashqari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- 6) aksiyadorlar umumiy yig'ilish kun tartibini tayyorlash;
- 7) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- 8) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- 9) e'lon qilingan aksiyalar soni va turi doirasida Bank tomonidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali Bank ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilish hamda shu bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar (aksiyalar chiqariluvchi tug'risidagi qaror va emissiya risolasi)ni tasdiqlash;
- 10) Bankni qayta tashkil qilish, yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlarni, foyda va zararlar taqsimlanishini tasdiqlash, Bank ustaviga

o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Bank ustavini tasdiqlash to'g'risida takliflarni ko'rib chiqish uchun Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish;

11) Bank ustaviga uning ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ;

12) Bankning avval ro'yxatdan o'tgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishiga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish hamda kiritilayotgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar matnini tasdiqlash;

13) auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

14) mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish, shu jumladan mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun Boshqaruvga topshiriq beradi;

15) yillik biznes-reja va Bank faoliyati yo'nalishlari bo'yicha Bank siyosatlarini tasdiqlash;

16) Markaziy bank bilan kelishgan holda Bank Boshqaruvi raisini lavozimiga tayinlash va muddatidan oldin vakolatini tugatish va keyinchalik bu masalani Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish;

17) Bank Boshqaruvi a'zolarini lavozimiga tayinlash va muddatidan oldin vakolatini tugatish;

18) ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

19) xodimlarga Bank xaq to'lash tizimini yaratishda qatnashish, Boshqaruv a'zolariga, muhim ahamiyatga ega xodimlarga, ichki audit, ichki nazorat xodimlarga to'lanadigan haq, mukofotlar, (bonuslar) va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

20) Bank Boshqaruviga tavsiyalar berish;

21) aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

22) Bankning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

23) Bankning tarkibiy tuzilmalari va filiallari faoliyat tartibini belgilovchi lokal hujjatlarni tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatiga taalluqli bo'lgan lokal hujjatlarni qabul qilish (tasdiqlash) bundan mustasno;

24) Bank vakolatxonalarini ochish va filiallarini tashkil qilish;

25) Bankning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

26) Bank qo'mitalarini tashkil qilish va ular to'g'risidagi nizomlar, shuningdek ichki audit va ichki nazorat xizmati nizomlarini tasdiqlash;

27) mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigacha tashkil etuvchi bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan yirik bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno. Bunda yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

28) Affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror majlisda ishtirok etayotgan Bank kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Bunda Bankning

affillangan shaxsi bilan aktivlarining qiymati jamiyat sof aktivlari qiymatining o'n yoki undan ko'p foizini tashkil etadigan bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

29) Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

30) Bank bilan aloqador bo'lgan shaxslar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat berish;

31) Bank aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

32) Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

33) Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida va Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qarorlarni qabul qilish;

34) korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

35) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda bitimlarni tuzish to'g'risida qarorlarni qabul qilish;

36) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, ushbu Ustav va Bank kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan Bank kuzatuv kengashi vakolat doirasiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

Bank kuzatuv kengashi vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bank Boshqaruviga hal qilish uchun o'tkazilishi mumkin emas.

74. Bank kuzatuv kengashi majburiyatlari:

Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Bank Boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borish;

o'z vakolatlarini Bank aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

Bankka vakolatli rahbarlikni ta'minlash;

Bank Boshqaruvi tomonidan tayyorlangan Bankning uzoq va qisqa muddatli biznes-rejalarini tasdiqlash hamda ularning ijrosini nazorat qilish;

Bank tezkor faoliyati, kreditlar berish va mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligi ustidan joriy nazoratni amalga oshirish (omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida);

Bankning yetarli darajadagi kapitallashuvini qo'llab-quvvatlash;

Bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

Bankning foyda ko'rishi monitoringini olib borish;

ichki audit xizmati faoliyat ko'rsatishini tashkil etish;

Bank maqsadlariga erishish hamda qonuniy, xavfsiz va samarali bank faoliyatini yuritish uchun yetarli siyosatlarni belgilash;

har chorakda Bank faoliyati natijalari to'g'risidagi Bank Boshqaruvi va ichki audit xizmatining hisobotlarni eshitish;

Bank operatsiyalari uchun mos nazoratni ta'minlash va ularni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bank siyosatlariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshirish;

korporativ boshqarish bo'yicha qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga rioya qilinishi to'g'risidagi hisobotni yillik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga taqdim etish.

75. Bank kuzatuv kengashi 5 kishidan iborat tarkibda saylanadi. Bank kuzatuv kengashi a'zolari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida cheklanmagan holda qayta saylanish huquqi bilan uch yilga saylanadi.

Bank Boshqaruvi a'zolari va Boshqaruv Raisi, shuningdek Bankda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan shaxslar Bank kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Markaziy bank Bank kuzatuv kengashining a'zoriga ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi.

Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi bankka aloqador shaxslar bo'lmasligi kerak, bundan ularning kuzatuv kengashidagi a'zoliigi mustasno.

76. Bank kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Bank kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir.

77. Bank kuzatuv kengashi Raisi Bank kuzatuv kengashi umumiy a'zolari sonining ko'pchilik ovozi bilan Bank kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

78. Bank kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bir nafar mustaqil a'zo kiritiladi. Ushbu a'zo har uch yilda qayta saylanishi mumkin.

Quyidagi shaxs Bank kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi deb e'tirof etiladi:

so'nggi uch yil mobaynida Bankda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlamagan shaxs;

Bankning aksiyadori va (yoki) uning affillangan shaxsining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lmagan shaxs;

Bankning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lmagan shaxs. Bunda qaysi mijoz va yetkazib beruvchi bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'shalar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

Bank va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lmagan shaxs, bundan Bank kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hollar mustasno;

Bank boshqaruv organlar va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingan bolasi), tug'ishgan va o'gay akasi (ukasi) hamda opasi (singlisi) bo'lmagan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lmagan shaxs. Bank kuzatuv kengashi Raisi Bank kuzatuv kengashi ishini tashkil etadi, majlislarini chaqiradi va ularda Raislik qiladi, Bank kuzatuv kengashi majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkil etadi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Raislik qiladi, bank nomidan Boshqaruv Raisini yollash to'g'risidagi mehnat shartnomasini tuzadi.

Bank kuzatuv kengashi Raisi joyida bo'lmagan taqdirda uning funksiyalarini Bank kuzatuv kengashi a'zolaridan biri amalga oshiradi.

79. Bank kuzatuv kengashi majlisi kuzatuv kengashi Raisining o'z tashabbusiga ko'ra yoki Bank kuzatuv kengashining a'zosi, Bank Boshqaruvi, ichki audit xizmati rahbari, Bank tashqi auditi talabiga ko'ra chaqiriladi.

80. Bank kuzatuv kengashi har oy kamida bir marta chaqiriladi.

81. Bank kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Bank kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Bank kuzatuv kengashi a'zolarining soni ushbu Ustavda nazarda tutilgan miqdorning 75 foizidan kam bo'lib qolsa, Bank kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun favqulodda (navbatdan tashqari) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Bank kuzatuv kengashining qolgan a'zolari ana shunday favqulodda (navbatdan tashqari) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagina qaror qabul qilishga haqlidir.

82. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Bankning kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Bank kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

Bank faqat mazkur Bank kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan audit qo'mitasini tashkil etishi shart. Bankning ichki audit xizmati o'z faoliyatida audit qo'mitasiga hisobdordir.

Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi Bank kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

83. Bank kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisida ishtirok etayotgan Bank kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, agar ushbu Ustav va qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa.

Bank kuzatuv kengashi qarorlarini qabul qilishda ovozlar teng bo'lgan hollarda Bank kuzatuv kengashi Raisi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega.

Bank kuzatuv kengashi a'zosi o'z ovozini boshqa Bank kuzatuv kengashi a'zosiga berishga yo'l qo'yilmaydi.

84. Bank kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi, u majlis o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay tuziladi va tasdiqlanadi.

Bank kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisida ishtirok etayotgan Bank kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlisning bayonnomasi to'g'riligi uchun javobgardir.

Bank kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Bank kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

Bank kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Bank Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Bank kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Bank Boshqaruviga Bank kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

Bank Boshqaruvi

85. Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi Bank Boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi.

Bank Boshqaruvi Bank kuzatuv kengashi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordir.

86. Bank Boshqaruvi 6 kishidan iboratdir. Bank Boshqaruvi tarkibiga Rais, uning ba'zi o'rinbosarlari, Bankning bosh buxgalteri va yuridik xizmat boshlig'i kiradi. Bank Boshqaruvi tarkibiga shuningdek bankning asosiy bo'linmalari rahbarlari kirishi mumkin.

Markaziy bank Bank Boshqaruvning a'zoliciga ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi.

87. Bank Boshqaruv Raisi o'z lavozimiga Markaziy bank bilan kelishilgan holda Bank kuzatuv kengashi qarori bilan uch yil muddatga tayinlanadi va keyinchalik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdig'iga kiritiladi.

Boshqaruv a'zolari Bank kuzatuv kengashi tomonidan uch yil muddatga tayinlanadi.

Bank Boshqaruviga chet ellik menejerlar xam a'zo bulishi mumkin.

88. Bank Boshqaruvi vakolatiga ushbu Ustav va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashi mutlaq vakolatlariga kiradigan masalalardan tashqari, Bank faoliyatiga kundalik rahbarlik qilish bilan bog'liq barcha masalalar kiradi.

Bank Boshqaruvi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etadi.

Bank Boshqaruvi:

Bankning tarkibiy tuzilmalari ishini muvofiqlashtiradi;

Bank Boshqaruvi qoshida qo'mitalar va komissiyalarni (ishchi guruhlarni) yaratadi;

Bank tariflarni, foizlarni, biznes jarayonga tegishli hujjatlarni, mahsulot pasportlarni va ichki qoidalarni (tartiblarni) tasdiqlaydi;

bank xizmatlari ofislarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi

ichki nazorat va ichki audit xizmatlari nizomlaridan tashqari Bank tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

Bankning kundalik faoliyatidagi muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Bank ichki auditi departamentining tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va qonun buzilishlarni har chorakda ko'rib chiqadi va ularni bartaraf qilish choralarni ko'radi;

tashqi audit tekshiruv natijalari va Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan inspeksiya (tekshiruv) hisobotlarini batafsil tahlil qiladi;

kredit, investitsiya, emissiya siyosatlarini, Bank likvidligini boshqarish siyosatini qamrab oluvchi Bankni boshqarish uchun siyosatlar ishlab chiqish chora-tadbirlarini ko'radi;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining besh foizidan o'n besh foizigacha bo'lgan mol-mulkni Bank olishi yoki tasarrufidan chiqarishi bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzadi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, ushbu Ustav va Bank Boshqaruvi to'g'risidagi Nizomga binoan Bank Boshqaruvi vakolatiga taalluqli bo'lgan boshqa masalalarni hal qiladi.

89. Bank Boshqaruvi majlisi, agar unda Bank Boshqaruvining kamida 4 a'zosi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Qarorlar Bank Boshqaruvi majlisida ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Bank Boshqaruv Raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Bank Boshqaruvi a'zosi Bank Boshqaruvi qaroriga qo'shilmagan hollarda Bank kuzatuv kengashiga o'z fikri to'g'risida xabar berishi mumkin.

90. Bank Boshqaruvi majlisida bayonnomasi yuritiladi. Bank Boshqaruvi majlisining bayonnomasi Bank kuzatuv kengashi a'zolari talabi bo'yicha ularga taqdim qilinadi.

Bank Boshqaruvi majlisini o'tkazilishini, Bank nomidan barcha xujjatlarga va Bank Boshqaruvi majlisi bayonnomasiga imzo chekuvchi Bank Boshqaruvi Raisi tashkil qiladi.

91. Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolarining huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, ushbu Ustav, Bank Boshqaruvi to'g'risidagi Nizom, shuningdek Bank har bir Boshqaruvi a'zosi bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

Bank nomidan shartnomalarga Bank kuzatuv kengashi Raisi yoki Bank kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi. Bank Boshqaruvi Raisi bilan tuziladigan shartnomada uning Bank faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashi oldida Bankning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan beradigan hisobotlari davriyligi nazarda tutilishi lozim.

92. Bank Boshqaruvi Raisi shartnoma shartlarini buzganda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi u bilan shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Bank kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvi Raisi, a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, ular Bank ustavini qo'pol tarzda buzishga yo'l qo'ygan bo'lsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli bankka zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

93. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Bank Boshqaruvi Raisining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Bank Boshqaruvi Raisi vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha umumiy yig'ilishning o'zida hal etilishi yoki Bank Boshqaruvi Raisining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda yaqin oradagi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.

94. Bank Boshqaruvi Raisining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan Bank kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvi Raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek Bank Boshqaruvi Raisi to'g'risidagi masalani hal etish uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqiradi.

95. Bank Boshqaruvi Raisi:

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashi qarorlari ijrosini ta'minlaydi;

Bank nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Ustavda belgilangan doiralarda mulk va pul mablag'larini tasarruf etadi;

Bank tashkiliy tuzilmasini aniqlaydi, Bank qoidalari, ish tartibi va boshqa lokal hujjatlarini tasdiqlaydi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Bank kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadigan lokal hujjatlar bundan mustasno;

Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan lokal hujjatlarni imzolaydi;

Bank, filiallar va vakolatxonalarining shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

ishonchnomalar beradi;

banklarda Bankning vakillik, valyuta, hisob-raqamlari va boshqa hisob-raqamlarini ochadi;

buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qiladi;

Bank kundalik xujalik faoliyatini yuritish asosida sodir etiladigan bitimlar (shartnomalar) tuzadi;

balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining besh foizgacha tashkil etuvchi mol-mulkni Bankning olishi yoki tasarrufidan chiqarishi bilan bog'liq bitimlarni tuzadi, ularni muddatini uzaytirishni ma'qullash, bundan mustasno;

xodimlarni, shu jumladan bosh buxgalter, bo'linma, filial va vakolatxonalar rahbarlarini ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;

Bank xodimlarini qonun hujjatlarida ushbu Ustav, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan tartibda rag'batlantiradi, shuningdek ularni intizomiy va moddiy javobgarlikka tortadi;

Bank xodimlarining barchasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va ko'rsatmalar chiqaradi;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Bank kuzatuv kengashi faoliyatini tashkiliy texnikaviy ta'minlashni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq Bank faoliyatining boshqa kundalik masalalarini hal qiladi.

VIII. BANKNING MINORITAR AKSIYADORLARI QO'MITASI

96. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Bankda ularning orasidan Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

97. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar Bankka Bank kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va Bank kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida Bank kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga Bank Boshqaruv Raisi, Bank Boshqaruv a'zolari, shuningdek Bankning kuzatuv kengashiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

98. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

1) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Bankning kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

2) Minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

3) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

4) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

99. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir.

100. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni 3 ta dan iborat.

101. Minoritar aksiyadorlarning qo‘mitasi qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida har yili Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida hisobot beradi.

102. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining Raisi ushbu qo‘mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining a‘zolari tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi.

103. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi Bankning xo‘jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining faoliyatiga Bank kuzatuv kengashining yoki Bank Boshqaruvining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

IX. BANK HISOBI VA HISOBOTI

104. Bank O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etishi shart.

105. Bankda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan bank faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Bank Boshqaruvi zimmasida bo‘ladi.

Bank so‘ralayotgan hujjatlarni aksiyadorga elektron shaklda taqdim qilishga haqli.

Aksiyadorlar bank yoki uning faoliyati to‘g‘risidagi xizmat, tijorat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni oshkor qilishga haqli emas.

106. Bankning moliyaviy hisobotida ko‘rsatilgan va Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag‘idagi ma‘lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Bank yoki uning aksiyadorlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

107. Bankning yillik hisoboti Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida 10 kun oldin Bank kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

108. Yillik balans hamda foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotlar Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

109. Taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligini mustaqil auditorlik tashkiloti tasdiqlagandan so‘ng, bank qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliyaviy hisobotini e‘lon qiladi.

Bank Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofik tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofik tashki auditdan utkazilganidan keyin aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi utkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e‘lon kilishi shart.

110. Bankning operatsiyalarini bajaradigan yil 1 yanvarda boshlanadi va 31 dekabrda tugaydi.

X. BANKNING MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

111. Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan Ichki audit xizmatini tashkil etadi. Bank taftish komissiyasini tashkil etish ko‘zda tutilmagan.

112. Ichki audit xizmati Bankning ijroiya organi, vakolatxonalar va filiallari tomonidan qonun hujjatlari, Bank ustavi va boshqa lokal hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma‘lumotlarning to‘liq hamda to‘g‘ri aks ettirilishi ta‘minlanishini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek bankni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali ularning ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

113. Ichki audit xizmati Bank kuzatuv kengashi oldida hisobdordir.

114. Bank auditi mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan har yili olib boriladi. Auditorlik tashkiloti Bank bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bankning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

115. Auditorlik tashkiloti Bankning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborotlar haqida noto‘g‘ri xulosa bayon etilgan auditorlik xulosasi tuzganlik oqibatida yetkazilgan zarar uchun Bank oldida javobgar bo‘ladi.

116. Auditorlik tekshiruvlaridan maqsad auditorlarning quyidagilar bilan bog‘liq xolis fikrini olish hisoblanadi:

Bankning moliyaviy hisobotlari ishonchliligi va ularning milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqligi;

ichki nazorat tizimini tashkil qilish va ichki nazorat tartib-taomillariga rioya etilishi;

Bankning bank qonunchiligiga va Markaziy bank me‘yoriy hujjatlariga rioya etishi;

banklar bilan o‘zaro munosabatlarida olib borilgan operatsiyalari, uning moliyaviy faoliyati, buxgalteriya hisobi va ma‘muriy nazorat tizimining to‘g‘riligi va samaradorligi.

XI. BANKNI QAYTA TASHKIL QILISH VA TUGATISH

117. Bankni qayta tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49-53 moddalari, shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 92-101 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

118. Bankni qayta tashkil etish Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shakllarida Markaziy bankdan ruxsatnoma olgan holda amalga oshiriladi.

119. Bank ustaviga Bankning qayta tashkil etilishi munosabati bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar qonunchilik va Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi.

120. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Bankni qayta tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyin qayta tashkil etilayotgan bank 30 kundan kech bo'lmagan muddatda yozma ravishda ma'lum qilish va kamida ikkita markaziy gazetalarda tegishli e'lon berish yo'li bilan o'z kreditorlarini kelgusidagi o'zgarishlar haqida xabardor qilishi shart.

121. Bankni tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53-56 moddalari, shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari, va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 98-101 moddalariga va "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

122. Bank faoliyatini tugatish va bankni tugatish ixtiyoriy tugatish yoki majburiy tugatish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Bankni ixtiyoriy tugatish Markaziy bankning ixtiyoriy tugatishga doir roziligiga asosan amalga oshiriladi.

Bankni majburiy tugatish Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish va bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qarori asosida amalga oshiriladi.

Agar ixtiyoriy tugatish jarayonida bankning to'lovga qobiliyatsiz ekanligi aniqlansa, tugatuvchi (tugatish komissiyasi yoki jismoniy shaxs) zudlik bilan Markaziy bankni bu haqda xabardor qilishi hamda bankning moliyaviy holatini tasdiqlovchi tegishli hisobotni va hujjatlarni taqdim etishi kerak.

123. Bank ixtiyoriy tugatilayotganda tugatuvchi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadi. Agar tugatuvchi tayinlanmagan bo'lsa, u Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan tayinlanadi.

Bank majburiy tugatilayotganda tugatuvchi Markaziy bank tomonidan tayinlanadi. Markaziy bank tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank xodimlarini kiritishga haqli. Tugatuvchi majburiy tugatilayotgan bankning yagona vakilidir.

Tugatuvchi (agar tugatish komissiyasi tayinlansa, uning rahbari va a'zolari) "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 36-moddasining talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Markaziy bank bank ixtiyoriy tugatilayotganda Markaziy bankka taqdim etilgan hujjatlar va (yoki) ma'lumotlar auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanishini bankdan talab qilishga haqli.

124. Agar Bank to'lovga qobiliyatsiz bo'lmasa yoki uning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lmasa, u ixtiyoriy tugatilishi mumkin.

Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishga doir roziligini olish quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish;

bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani olish.

Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qarorini dastlabki ruxsatnomani olmasdan turib hamda Bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarorini yakuniy ruxsatnomani olmasdan turib uchinchi shaxslarga oshkor etish taqiqlanadi.

125. Dastlabki ruxsatnomani olish uchun Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar ovozlarning to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida bank tomonidan

dastlabki ruxsatnomani olish uchun Markaziy bankka quyidagilar ilova qilingan holda ariza taqdim etiladi:

dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qaror;

Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan ixtiyoriy tugatish rejasi;

Bankning dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi balans hisoboti.

Bankni ixtiyoriy tugatish rejasi "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning talablariga muvofiq bo'lishi shart.

Markaziy bank dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi yoki dastlabki ruxsatnoma berishni asoslantirilgan holda rad etish haqidagi qarorni dastlabki ruxsatnomani olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran ikki oy ichida qabul qiladi.

126. Dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

"Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq taqdim etilmaganligi yoki qonunchilik talablariga muvofiq emasligi;

bank kreditorlarning talablarini asosli kechiktirishsiz qanoatlantirishga qodir emasligi;

ixtiyoriy tugatish rejasining "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ko'rsatilgan talablarga muvofiq emasligi;

bankning to'lovga qobiliyatsizligi yoki to'lovga qobiliyatsizligining yuzaga kelishi ehtimoli yuqoriligi.

127. Yakuniy ruxsatnomani olish uchun Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar ovozlarining to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yakuniy ruxsatnomani olish uchun Markaziy bankka ariza taqdim etiladi.

Agar "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ko'rsatilgan, Bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lmasa, Markaziy bank bankdan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab olishga haqli.

Markaziy bank yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risidagi yoki yakuniy ruxsatnomani berishni asoslantirilgan holda rad etish haqidagi qarorni yakuniy ruxsatnomani olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran yigirma ish kuni ichida qabul qiladi.

128. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarori yakuniy ruxsatnoma berilganidan keyin kuchga kiradi.

129. Ixtiyoriy tugatilayotganda, Bank kuzatuv kengashining va Boshqaruvining vakolatlari yakuniy ruxsatnoma berilgan paytdan e'tiboran tugatuvchiga o'tadi. Bankni majburiy tugatishda tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran bank ishlarini boshqarish bo'yicha vakolatlar, shu jumladan Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining, Bank kuzatuv kengashining va Boshqaruvining vakolatlari unga o'tadi.

Tugatuvchining bankni ixtiyoriy tugatish chog'idagi vazifalari quyidagilardan iborat:

ommaviy axborot vositalarida va bankning rasmiy veb-saytida bankni ixtiyoriy tugatish jarayoni boshlanganligi, shuningdek kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish muddatlari to'g'risida e'lon qilish;

bankning oraliq tugatish balansini tuzish;

kreditorlar bilan hisob-kitobni amalga oshirish;
Bank aktivlarini sotish bo'yicha choralar ko'rish;
Bankning yakuniy tugatish balansini tuzish;
Markaziy bankka hisobot va ma'lumotlarni taqdim etish.

130. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning tugatuvchini almashtirishni, tugatish rejasiga o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi qarorlari Markaziy bank bilan kelishilishi kerak. Markaziy bank ushbu qarorlarni ular taqdim etilgan kundan e'tiboran bir oy ichida kelishadi yoki kelishishni rad etadi.

131. Agar bank tizimli ahamiyatga molik deb e'tirof etilmagan bo'lsa, u "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 77-moddasida nazarda tutilgan hollarda majburiy tugatilishi mumkin.

Bankni majburiy tugatish suddan tashqari tartibda va (yoki) "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 62-moddasiga muvofiq sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qarorda mazkur qarorning kuchga kirish sanasi hamda aniq vaqti ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

132. Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kunda Markaziy bank bu haqda Omonatlarni kafolatlash agentligini, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini, tugatilayotgan bank ishtirokchisi bo'lgan to'lov tizimlarini, tugatilayotgan bank vakillik hisobvaraqlariga ega bo'lgan chet el banklarini xabardor qiladi.

Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgandan e'tiboran bank ishtirokchi bo'lgan to'lov tizimlari pul mablag'larining to'lov tizimlariga o'tkazilishiga, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi esa qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar ro'yxatdan o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralarni ko'rishi kerak.

133. Bankni majburiy tugatishda tugatuvchi "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan huquqlarga ega bo'ladi.

134. Tugatuvchi Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 65-moddasida nazarda tutilgan tartib-taomillar yakunlanganidan keyin bank qimmatli qog'ozlari chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini bekor qilish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiradi.

Bank suddan tashqari tartibda majburiy tugatilgan taqdirda, Markaziy bank yakuniy tugatish balansini qonunda ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida tasdiqlaydi hamda Banklarning davlat reyestriga bankni tugatish yakunlanganligi va bank tugatilganligi to'g'risidagi yozuvni kiritadi.

XII. BANK USTAVIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

135. Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan yoki vakolati doirasida Bank kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Bank ustavini yangi tahrirda qabul qilish Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha amalga oshiriladi.


136. Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Bank ustavini yangi tahrirda qabul qilish bankni ro'yxatga olish uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

137. Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar yoki yangi tahrirdagi Ustavi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

138. Bankning ustavi, unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Markaziy bankda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Bankning ichki qoidalari, shuningdek ularga kiritiladigan keyingi o'zgartirish hamda qo'shimchalar banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilishi hamda Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

Boshqaruv Raisi



I.B. Tursunov